

QORA SEDANANING DORIVOR XUSUSIYATLARI VA KELIB CHIQISH TARIXI

Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi qo'mitasi huzuridagi Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi kichik ilmiy xodim

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21466555>

Qora sedana (*Nigella sativa* L.) Ranunculaceae oilasiga mansub bir yillik dorivor va ziravor o'simlik bo'lib, insoniyat tomonidan qadim zamonlardan buyon oziq-ovqat, xalq tabobati hamda davolash amaliyotida qo'llanib kelinadi. Arxeologik va tarixiy manbalarga ko'ra, ushbu o'simlikning vatani Janubi-g'arbiy Osiyo va O'rta Yer dengizi havzasi hisoblanadi. Qadimgi Misr fir'avnlar qabrlari, jumladan Tutanxamon maqbarasidan qora sedana urug'larining topilgani uning bundan uch ming yildan ortiq vaqt davomida dorivor o'simlik sifatida qadrlanganligini ko'rsatadi. Keyinchalik u Yaqin Sharq, Hindiston, Pokiston, Markaziy Osiyo hamda Yevropa mamlakatlariga tarqalib, turli agroiklim sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashgan.

Hozirgi vaqtda *Nigella sativa* asosan Hindiston, Eron, Turkiya, Suriya, Misr va Pokistonda keng miqyosda yetishtiriladi. Dunyo bo'yicha qora sedana urug'i ishlab chiqarish hajmi qariyb 600 ming tonnani tashkil etib, uning asosiy qismi Hindiston hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur o'simlik farmatsevtika, oziq-ovqat va kosmetika sanoati uchun muhim xomashyo hisoblanadi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida qora sedananing biologik faol moddalari tarkibini chuqur o'rganish hamda ular asosida tabiiy dori vositalari yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Uning urug'lari tarkibida 32–40 % yog', 15–20 % oqsil, 2,5–4 % efir moyi, alkaloidlar, saponinlar, flavonoidlar va boshqa biologik faol birikmalar mavjud. Ayniqsa, timoxinon birikmasi antioksidant, yallig'lanishga qarshi, antibakterial va immunomodulyator xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, qora sedana preparatlari qandli diabet, arterial gipertenziya, bronxial astma, oshqozon-ichak kasalliklari hamda ayrim yuqumli kasalliklarni davolashda ijobiy samara berishi aniqlangan. Xalq tabobatida esa urug'i va moyi shamollash, yo'tal, teri kasalliklari hamda immunitetni mustahkamlash maqsadida keng qo'llaniladi. Zamonaviy fitokimyoviy va farmakologik tadqiqotlar qora sedananing nafaqat urug'i, balki vegetativ qismlari ham farmatsevtik xomashyo sifatida istiqbolli ekanligini tasdiqlamoqda.

O'simlikning bo'yi o'rtacha 45 sm, barglari nashtarsimon va chiziqli shaklda bo'lib, uzunligi 2,5–5,0 sm oralig'ida. Gul yaproqlari och ko'k rangda, urug'lari tashqi tomondan qora, ichki qismida oq rangga ega. *Nigella sativa* xalq tabobati va zamonaviy farmakologiyada ko'plab kasalliklarni, jumladan, gipertenziya, semizlik, yallig'lanish, zamburug'li va bakterial infeksiyalar, oksidlanish stressi hamda saraton kasalligini davolashda qo'llaniladi [1]. Qur'on va hadis manbalarida qora sedana urug'ining yuqori shifobaxsh xususiyatlari qayd etilgan bo'lib, an'anaviy tabobatda ushbu o'simlikdan samarali vosita sifatida foydalanish davom etmoqda. Tadqiqotda, shuningdek, qora sedana inson salomatligi uchun xavfsiz va foydali dorivor mahsulotlar tayyorlashda istiqbolli manba ekanligi alohida qayd etilgan [2]. Tibbiy klinik kuzatuvlar asosida qora sedana preparatlarining bronxial astma, qandli diabet, gipertoniya hamda oshqozon-ichak kasalliklari kabi surunkali xastaliklarda ijobiy terapevtik ta'siri aniqlangan. Jumladan, 2-toifa qandli diabet bilan og'rigan bemorlarga kuniga 2 g qora sedana kukuni berilganida 12 haftalik iste'mol natijasida qondagi glyukoza miqdori 16–18% ga kamaygani kuzatilgan. Shuningdek, qora sedananing xalq tabobatida tumov, yo'tal, teri

kasalliklari va parazitlar infeksiyalarni davolashda keng qo'llanilishi qayd etilgan[3]. O'simlikning yashil qismlaridan tayyorlangan ekstraktlar ustida fitokimyoviy skrining, antibakterial va antioksidant tahlillar, shuningdek gaz xromatografiyasi-mass-spektrometriya (GC-MS) tahlillari o'tkazilgan. Natijalar *N. sativa* ning yashil qismlarida saponinlar, alkaloidlar, terpenoidlar, steroidlar, yurak glikozidlari, taninlar va flavonoidlar mavjudligini, ammo floba-tanninlar aniqlanmaganini ko'rsatgan. Tadqiqot natijalari vegetativ qismlarning farmatsevtik xomashyo sifatida foydalanish imkoniyati mavjudligini asoslaydi[4].

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qayyum M., Ashiq K., Tanveer S., Bajwa M. A., Shah-Rukh A., Jahangir N. Review on phytochemical evaluation and extraction of *Nigella sativa* (Kalongi) with pharmacological and traditional applications // *Int. J. Biosci.* – 2020. – Vol. 16, № 3. – P. 231–241.
2. Datta A.K., Saha A., Bhattacharya A., Mandal A., Paul R., Sengupta S. Black cumin (*Nigella sativa* L.) – a review // *J Plant Dev Sci.* – 2012. – T. 4. – № 1. – C. 1–43.
3. Tojiboyev M. U., Muxsinboyev O. M. O', Mashrabova M. O. Qora sedananing tabobatdagi o'rni va foydali xususiyati // *Obrazovanie, nauka i innovatsionnye idei v mire.* – 2023. – Vol. 22, № 3. – P. 167–170.
4. Aftab A. et al. Morphological Variability Assessment of Worldwide Germplasm of Pharmaceutically Important Plant *Nigella sativa* L. // *Jordan Journal of Pharmaceutical Sciences.* – 2022. – T. 15. – № 1. – C. 82–106.